

SO‘Z YASALISHIDA HOZIRGI VA TARIXIY USULLAR
СОВРЕМЕННЫЕ И ИСТОРИЧЕСКИЕ СПОСОБЫ
СЛОВООБРАЗОВАНИЯ
MODERN AND HISTORICAL METHODS OF WORD FORMATION

Turayeva Iroda Sheramatovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti f.f.f.d.,

Beg‘amova Shahnoza

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Filologiya va tillarni

o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek tilida so‘z yasash jarayonining hozirgi va tarixiy usullari tahlil qilinadi. So‘z yasashning asosiy turlari — affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya, semantik va fonetik usullar haqida so‘z yuritilib, ularning tarixiy ildizlari hamda zamonaviy davrdagi qo‘llanish holatlari o‘rganiladi. Maqolada qadimgi turkiy davrlardan to hozirgi zamongacha bo‘lgan so‘z yasash jarayonining uzviylik tamoyili, yangi leksemalar hosil bo‘lishida affikslar va so‘z birikmalarining roli yoritiladi. Shuningdek, qisqartirish va kalkalash kabi hozirgi davrda faol bo‘lgan usullar ham tahlil qilinadi. Xulosa sifatida, tarixiy usullar tilning ildizini belgilab bersa, zamonaviy usullar uning boyishiga, yangi tushunchalarni ifodalashga va til taraqqiyotini ta‘minlashga xizmat qilayotgani ta‘kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *so‘z yasalishi, yasama so‘z, affiksatsiya, kompozitsiya, semantik usul, fonetik usul, kalkalash, qisqartirish.*

Аннотация. *В данной статье анализируются современные и исторические способы словообразования в узбекском языке. Рассматриваются основные типы словообразования — аффиксация, композиция, конверсия, семантический и фонетический способы, их исторические корни и современное применение. В работе освещается преемственность процесса словообразования от древнетюркского периода до наших дней, а также роль аффиксов и словосочетаний в формировании новых лексем. Особое внимание уделяется современным активным методам — сокращению и калькированию. В заключение подчеркивается, что исторические способы заложили основу языка, а современные методы способствуют его обогащению, выражению новых понятий и развитию узбекского языка.*

Ключевые слова: *словообразование, производное слово, аффиксация, композиция, семантический способ, фонетический способ, калькирование, сокращение.*

Annotation. *This article analyzes the modern and historical methods of word formation in the Uzbek language. The main types of word formation — affixation, composition, conversion, semantic, and phonetic methods — are examined with a focus on their historical roots and current usage. The paper highlights the continuity of the word-formation process from the ancient Turkic period to the present day, emphasizing the role of affixes and word combinations in the creation of new lexemes. Special attention is given to modern productive methods such as abbreviation and calque formation. In conclusion, it is emphasized that while historical methods established the foundation of the language, modern ones enrich its vocabulary, express new concepts, and contribute to the ongoing development of the Uzbek language.*

Keywords: *word formation, derived word, affixation, composition, semantic method, phonetic method, calque, abbreviation.*

Har bir millat o'z tiliga ega. Shu bilan birga bizning davlat tilimiz o'zbek tilidir. O'zbek tilidagi so'zlarning yanada boyishi hozirgi kunda ichki va tashqi kuchlar orqali, ya'ni so'zlarga qo'shimchalar, so'zlarga so'zlar qo'shish orqali namoyon bo'ladi. Nafaqat hozirgi kunda, balki ming yillar davomida o'zbek tili yangi leksemalar bilan boyib kelmoqda. Tilning ham tarixiy taraqqiyotida, ham hozirgi taraqqiyotida so'z yasashining bir qancha shakllari mavjud bo'lib, ular hozirgi zamonaviy jarayonlarda ham alohida o'ringa ega.

So'z yasash uchun xizmat qiladigan affikslar morfemaning bir turi hisoblanadi. Har qanday yasama so'zning tarkibi asos va qo'shimchalardan iborat bo'ladi. Masalan: sabrli-sabr asos, -li so'z yasovchi qo'shimcha.

Yangi so'zlarning paydo bo'lishida so'z yasalishi hodisasi muhim rol o'ynaydi. Yangi so'zlarning juda ko'p miqdori har bir tilning o'ziga xos so'z yasash usullari bilan yaratiladi. Masalan: terim (ter+im)-affiksatsiya usuli, kitobsevar (kitob+sevar)-kompozitsiya usuli va boshqalar. So'z bilan bog'liq bu hodisa, ya'ni so'z yasalishi va unga aloqador hodisalar tilshunoslikning so'z yasalishi bo'limida o'rganiladi.[1]

O'zbek tilida faqat mustaqil so'zlarda, ularning ham ot, sifat, fe'l turkumiga oid so'zlardan yangi so'zlar hosil qilinadi. Demak, mustaqil so'z turkumlaridan faqat sifat, ot, fe'l turkumlarigina so'z yasalishi tizimiga ega. Biz bularga misol tariqasida: do'stlik: do'st+lik ot yasovchi qo'shimcha, naqshli: naqsh+li sifat yasovchi qo'shimcha, jonlan: jon+lan fe'l yasovchi qo'shimchalarni keltirishimiz mumkin.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, A.G'ulomov ta'kidlaganidek, o'zbek tilida so'z yasash besh tarmoqdan iborat: 1) affiksatsiya; 2) kompozitsiya; 3) konversiya; 4) semantika; 5) nutq tovushi o'zgarishi (fonetik). Ba'zi manbalarda so'zlar asosan besh xil usul bilan yasaladi; 1) so'z yasovchi qo'shimchalar bilan; 2) so'zlarni qo'shish bilan;

3)so'zlarni qisqartirish bilan; 4)so'zlarni takrorlash yordamida kabi turlarga ajratiladi.Ammo eng ko'p yasash o'zbek tilida ikki xil usulda namoyon bo'ladi:

1.Affiksatsiya (morfologik)usul. 2. Kompozitsiya (sintaktik)usul. [2]

Shu bilan birga o'zbek tilshunosligida so'z yasashining hozirgi va tarixiy usullari o'zaro qiyoslanib o'rganiladi. Tarixiy usullarga nazar tashlaydigan bo'lsak, tilshunoslikda qadimiy turkiy davrlardan boshlab:

-Affiksatsiya- qo'shimchalar yordamida yasash- qadimiy -gay,-chi,-lik,-g'u/-qu,-sizlik qo'shimchalari.Masalan:bil-gay(bilajak),toshqu;

-So'z qo'shish (kompozitsiya)- ko'ngil-ko'z;

-Takrorlash orqali yasash- yurak-yurak;

-Semantik yo'l- ma'no ko'chishi asosida.Masalan: yurak so'zi dastlab "ichki a'zo" ma'nosida qo'llangan bo'lsa, keyinchalik "jasorat" ma'nosini ham anglatgan.

Hozirgi zamon so'z yasash usullariga esa:

Birinchi o'rinda affiksatsiya –hali hanuz eng faol usulni kiritamiz.Misol tariqasida: o'qituvchi,yomg'irli;

-Kompozitsiya-kitob do'koni,oshxona;

-Qisqartirish va abbreviatsiya-IPU,OXU,TSUL;

-Semantik yo'l-mavjud so'zga yangi ma'no yuklash: sichqon (hayvon) va sichqon (kompyuter qurilmasi).

-Kalkalash-boshqa tillardan so'zma-so'z tarjima qilish orqali.

Hozirgi kunda ilm-fan,texnika,iqtisodiyot sohalari rivojlanar ekan ular bilan bir qatorda tilimizda yangi so'zlarning paydo bo'lishi, ularga so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shib yangi so'zlarning yasashi tilimizdagi haqiqiy o'sishni ko'rsatyapti.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda chet tillarni o'rganish tizimini,fan va ta'limni amaliyot bilan uzviy integratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish, derivatsiya hodisasi, uning turlari va qamrov darajasi sintaktik hamda semantik jihatdan atroflicha, boy lingvistik materiallar asosida tadqiq qilish ilg'or xorijiy tajribalarga tayangan holda o'zbek leksemalarining yanada boyishi uchun alohida turtkidir.[3]Chet tilidan kirib kelgan so'zlarga so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shish orqali yangi leksemalar hosil qilinmoqda. Bu o'zbek tili so'z boyligini yanada oshirishga katta yondashuvdir.

Bunga misol qilib, telefon+lash=telefonlashmoq (qo'ng'iroq qilish), internet+siz=internetsiz (internetsiz qolgan odam), kino+chi=kinochi (kino bilan shug'ullanuvchi), face+book=facebook (ijtimoiy tarmoqning bir turi).

Agar tarixiy va hozirgi usullarni qiyoslasak, tarixiy davrda affiksatsiya va semantik yo'l yetakchi xizmat qilgan,hozirda esa qisqartma va kalkalash usullari kengaygan deya xulosaga kelamiz.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, so'z yasashi til taraqqiyotining doimiy jarayonidir.Tarixiy usullar tilimizning ildizini, boy leksik qatlamini belgilab bergan bo'lsa, hozirgi usullar, ayniqsa, ilm-fanning, texnologiyaning rivojlanganligiga va

jamiyatdagi yangi shakllanib borayotgan yangiliklarni nomlashda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Tarixiy usullar tilning qadimiy qatlamini shakllantirgan bo'lsa, hozirgi usullar yangi davr talablariga mos yangi leksemalarni yaratmoqda. Tarixiy va hozirgi so'z yasalishi usullarini fan nuqtai nazaridan o'rganish tilshunoslikda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, tarixiy usullar so'zning vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarganligi, hozirgi usullar esa tilning hozirgi davrdagi imkoniyatlaridan qanday foydalanayotganini ko'rsatib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'.Sharipova, I. Yo'ldoshev. Tilshunoslik asoslari. Toshkent. 2007. –B.85.
2. D. Bazarova, F. Rajabov, M. Aliqulova. O'zbek tili. Qarshi. 2024. –B.45.
3. M. Baxtiyorov. Tarjimashunoslik: muammolar, yechimlar va istiqbollar II. Mavzusidagi xalqaro ilmiy- amaliy anjuman. 2024. –B.773-776.